

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2024- yil yanvar-sentabr)

## 1. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmi joriy narxlarda **1 015 331,8** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan **6,6 %** ga o'sdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi 7,0 % ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 1,6 f.p.ni tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi 3,1 % ni tashkil etdi va YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,7 f.p.ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi 9,0 % ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,7 f.p.ni tashkil etdi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati 7,5 % ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 10,9 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa 13,0 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 4,5 % ga o'sdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 3,3 f.p.ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi 6,6 % ga o'sdi va uning YaIM o'sishiga ijobiy hissasi 0,3 f.p.ni tashkil etdi.

## 2. Sanoat mahsuloti

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **629 171,5** mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **107,0** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 84,7 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 7,9 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,9 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bo'lib ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,2 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 4,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 1,3 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 5,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, ishlab chiqaradigan sanoatda rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,8 %), shuningdek, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,0 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xom neft va tabiiy gaz ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,0 %), mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 81,6 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

### **3. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **323 878,0** mlrd. so'mni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan **103,1** % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 315 599,5 mlrd. so'mni (103,1 %), o'rmon xo'jaligida – 6 229,5 mlrd. so'mni (102,9 %), baliqchilik xo'jaligida – 2 049,0 mlrd. so'mni (101,3 %) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (3,1 %) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi donli ekinlarning – 7,7 % ga, uzumning – 6,8 % ga, polizning – 6,7 %, mevalarning – 6,5 % ga, sabzavotlarning – 5,8 % ga, go'shtning – 4,9 % ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 67,1 % - dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 27,5 % - fermer xo'jaliklari, 5,4 % - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

### **4. Inflyatsiya darajasi**

2024- yilning yanvar-sentyabrida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **6,8** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-sentyabrida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha 1,4 % ga arzonlashib, inflyatsiyani tutib turuvchi (-0,61 f.d.) omil bo'lib xizmat qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari ushbu davrda 5,5 % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichning 1,81 f.d. o'sish sur'atini, xizmatlar esa 24,0 % ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha 5,57 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi.

Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari narx o'zgarishlarining 2024- yilning sentyabridagi 2023- yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'siri 4,40 f.d.ga yetdi yoki kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar jami ta'sirining 60 % idan ortig'ini tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar hamda axborot va aloqa sohasida narxlarning pasayishi tutib turuvchi omil sifatida xizmat qildi (jami hisobda - 0,83 f.d.). Sog'liqni saqlash sohasida (17,5 %), ta'lim (12,5 %), restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari (9,0 %) va transport (7,7 %) sohalarida, maishiy tovarlar va xizmatlar, boshqa turli tovarlar va xizmatlar (5,9 %) hamda kiyimlar va poyabzal (2,6 %) narxlarining oshishi hisobiga yig'ma INI 2,82 f.d. yuqoriladi.

## **5. Asosiy kapitalga investitsiyalar**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **343 085,9** mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **131,0** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi 18,2 % ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 5,8 %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – 2,3 %, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 62,1 %, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 29,4 %, aholi mablag'lari – 6,6 %, Respublika budjeti – 3,9 %, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – 0,6 %, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi 0,5 %.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2023- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – 195,5 %, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 161,1 %, ulardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 147,5 %, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 139,6 %, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari – 113,4 %, aholi mablag'lari – 105,1 %, korxonalar mablag'lari – 100,7 %.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari: tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – 73,6 %, Respublika budjeti – 73,5 %.

## **6. Qurilish ishlari**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **167101,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **109,1** % ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 40823,7 mlrd. so'm yoki 24,4 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 80407,5 mlrd. so'm yoki 56,1 %, norasmiy sektor subyektlari tomonidan 45869,9 mlrd.so'm yoki 27,5 % bajarildi.

## **7. Chakana savdo tovar aylanmasi**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **259 327,4** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,2** % ga o'sdi.

Yirik korxonalarning ulushi hajmi 2023- yilning yanvar - sentabr oylariga nisbatan 9,8 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,9 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 8,4 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 72,0 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,0 % ulush bilan 26 027,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## **8. Tashqi savdo aylanmasi**

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **48 206,3** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2023- yilning mos

davriga nisbatan 3 452,2 mln. AQSh dollariga yoki 7,7 % ga ko'paydi. Eksport hajmi 19 773,8 mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,5 % ga oshdi. Import 28 432,4 mln. AQSh dollariga yetdi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: boshqa mahsulotlar (oltin) eksporti o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 29,3 % ga, sanoat mahsulotlari – 16,1 % ga, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mineral – 7,3 % ga, kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – 6,2 % ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunalari – 35,5 % ga, sanoat mahsulotlari – 15,1 % ga, hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar – 12,2 % ga to'g'ri keladi.

### **9. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 564 777,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,8 % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning 20,3 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 3,5 punkt), savdo xizmatlari 11,2 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,2 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 10,4 % ga (o'sishdagi ta'siri 2,2 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 23,4 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,4 punkt), transport xizmatlari 8,6 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,4 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarning 15,8 % ga (o'sishdagi ta'siri 0,6 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi yashash va ovqatlanish (119 515,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,4 % ga yetdi), savdo xizmatlari (106 366,6 mlrd. so'm, 111,2 %), moliyaviy xizmatlar (97 608,4 mlrd. so'm, 120,3 %) va transport xizmatlari (97 091,9 mlrd. so'm, 108,6 %)ga to'g'ri keladi.

### **10. Korxonalar va tashkilotlar soni**

2024- yil 1- oktabr holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 466,4 mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 399,0 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (99 525 ta), Toshkent (42 634 ta), Samarqand (41 302 ta), Farg'ona (38 332 ta), Qashqadaryo (30 559 ta), Buxoro (29 917 ta) va Andijon (28 534 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 152 024 ta, sanoat sohasida – 64 079 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 35 654 ta,

qurilish sohasida – 30 801 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 28 682 tani tashkil etadi.

2024- yil yanvar-sentabr oyida respublikada 64,6 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 62,5 mingtani tashkil etdi.

2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 14 901 tani tashkil etdi. Ulardan 4 244 tasi qo'shma korxonalarni va 10 657 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.